

ISLOMDA QARZ TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Abduvaxabova Surayyo Zokirxo'ja qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

[*abduvaxabovasurayyo@gmail.com*](mailto:abduvaxabovasurayyo@gmail.com)

Telefon raqami +998940340770

Ilmiy rahbar: PhD N. To'rayev

Annotatsiya: *Islom dini insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga, ayniqsa moliyaviy masalalarga alohida e'tibor bergan. Qur'oni karim va hadislarda qarz berish, uni qaytarish, qarzdorlik axloqi va qarz olayotgan shaxsning mas'uliyati borasida aniq ko'rsatmalar mavjud. Qarz, shaxslar o'rtasidagi ishonchning bir shakli bo'lib, uni suiiste'mol qilish nafaqat dunyoviy, balki oxirat javobgarligiga ham olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada qarz tushunchasi, uning shariatdagi o'rne, qarz beruvchi va oluvchining huquq va burchlari, shuningdek, qarzdorlik bilan bog'liq ijtimoiy va axloqiy jihatlar yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Qarz, dayn, oriya, haqning sobit bo'lishi, zomin, qarzi hasana, ribo, kafil bo'lish.*

Insoniyat hayotida qarz munosabatlari ko'p uchragani sabab bu masalani o'rganish hamisha muhim va dolzarb bo'lib kelgan. Islom iqtisodiyotidagi moliyaviy munosabatlarning negizini aynan shu mavzu tashkil etgani boisdan ham, qarz masalalarini o'rganish va uning mohiyatini to'la anglab yetish muhim hisoblanadi.

“Qarz” so'zi arab tilida “qaychi bilan kesish” degan ma'noni bildiradi. Qarz bergan kishi molidan bir qismini kesib, boshqaga beradi. Shariat istilohida esa bir narsani boshqa kishiga uning badalini qaytarib berish sharti ila mulk qilib berishdir. Boshqaning moliyaviy haqini qanday bo'lsa ham, qarz deyish odat bo'lib qolgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida “qarz” so'ziga, “vaqtincha berilgan mol-mulk”,

“bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyat, burch” degan ta’rif berilgan. Qarz, o‘z molidan ajratib, qaytarib berish sharti bilan vaqtinchaga berishdir. Shariatda qarz ma’nosiga yaqin “dayn” istilohi ham bor.

“Dayn” so‘zi lug‘atda haqning sobit bo‘lishini bildiradi. Haq qarz yoki boshqa bo‘lishi mumkin. “Dayn” istilohda turlicha ta’rif qilingan. Hanafiy ulamolardan Ibn Nujaym uni quyidagicha ta’riflaydi: “Dayn zimmada haqning lozim bo‘lishidir”. Ushbu e’tibordan dayn qarzdan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, qarzni ham, undan boshqa zimmaga lozim bo‘lgan haqlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan haqlar ham dayn deyilaveradi. Misol uchun, qazo namoz, ro‘za va zakot ham dayn deyiladi. Shuningdek, qarz orqali yoki savdo, ijara, talafot yetkazish kabi narsalar tufayli kishining zimmasiga tushgan haqlar ham dayn bo‘ladi. Inson qay yo‘l bilan bo‘lmasin, bo‘yniga ilingan, to‘lashi lozim bo‘lgan narsalar dayn deyiladi.

Daynda ham, qarzda ham ma’lum muddatni tayin qilish lozimdir. Chunki noma’lum muddat ikki tomonni janjalga olib borishi mumkin. Nasiya muomalotlarida janjalning oldini olish uchun ikki tomon maslahatlashgan holda muayyan aniq muddatga kelishib olinishi kerak. Bu haqda “Baqara” surasining 282-283-oyatlarida batafsil ko‘rsatmalar zikr qilingan bo‘lib ushbu oyat Qur’oni Karimdagi eng uzun oyat bo‘lib, “Oyati mudoyana” (qarz oldi-berdisi oyati) nomini olgan.

Qur’oni karimda “Qarzi hasana” iborasi bir necha bor zikr etilgan. “Qarzi hasana” hech qanday foiz yoki qo‘shimcha talab qilinmaydigan, faqat Alloh rizoligi uchun beriladigan qarzdir. Uni berish musulmonlar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat va yordamni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qur’oni karimda Alloh taolo bu amalni o‘ziga qarz berish bilan tenglashtiradi. Jumladan “Hadid” surasining 11-oyatida Alloh taolo: “Allohga yaxshi qarz beradigan kishi bormi?! Bas, U zot unga bir necha marta ko‘paytirib qaytaradi va unga karamli ajr bor” deyilgan. Mufasssirlar ushbu oyatni, qarzi hasananing mukofoti jannat, deb tafsir qilishadi. Va yana “Tag‘obun” surasi 17-oyatda, “Agar Allohga qarzi hasana bersangiz, U sizga uni ko‘paytirib beradi va sizni mag‘firat qiladi” deyilgani, bu amalning naqadar fazilatli ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qarzi hasana berishning shartlaridan biri, uni qaytarish niyatining sobit bo'lishidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning: "Kimning qarzni qaytarish niyati bo'lsa, Alloh uni qaytarishga yordam beradi" degan hadisi, qarzdorning niyatiga ham katta e'tibor berilishini ko'rsatadi.

Abu Hurayra (r. a)dan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh (s.a.v): "Kim kambag'alga muhlat bersa yoki undan ba'zisini o'tib yuborsa, uni Alloh qiyomat kunida, O'zining soyasidan boshqa soya yo'q kunda Arshining soyasiga oladi", dedilar". Boshqa bir rivoyatda, "Qay bir musulmon boshqa musulmonga ikki

marta qarz bersa, albatta, bir marta sadaqadek bo'ladi" deyiladi".

Qarz shariatda joriy qilinganining eng yorqin dalillaridan biri Nabi (s.a.v)ning o'zlari qarz olganlaridir.

Abdulloh ibn Abu Robiya (r. a)dan rivoyat qilinadi: "Rasululloh (s.a.v) mendan qirq ming qarz oldilar. Keyin u zotga mol kelganida uni menga qaytarib berdilar. Va: "Alloh ahlingga va molingga baraka bersin. Albatta, qarzning mukofoti maqto'v va ado etishdir", dedilar".

Rasululloh (s.a.v)muhtoj bo'lib qolganlarida Abdulloh ibn Abu Robiya (r. a)dan qirq ming dirham qarz olganlar va qo'llariga pul tushishi bilan qaytarib berganlar va qarz berib turgani uchun uning haqlariga duo qilganlar.

Shariatda qarz beruvchi uchun ham, oluvchi uchun ham ma'lum qoida va odoblar joriy qilingan bo'lib ular quyidagilardan iborat.

Qarz beruvchining odoblari:

1. Qarz beruvchi qarzi hasan berishi.
2. Qarz beruvchi qarzdorga yaxshi muomala qilishi.
3. Qarz ustiga savdo qilmaslik.

Qarz ustiga savdo qilish bu - bir odam ikkinchisiga bir narsani qarzga berib, keyin o'sha narsaning ustiga narx qo'yib, unga sotishdir. Ribo shubhasi borligi uchun bunday savdoga ruxsat etilmaydi. Islomda qarzdan foyda olish mumkin emas, bu riboxo'rlik xisoblanadi. Qarzning ustiga foyda qo'yib savdo qilinganda ham shunday bo'lgani uchun bu man qilingan.

Qarzdorning odoblari:

1. Qarzni to'lashdan qochmaslik.
2. Qarzdor qarzini yaxshilab uzishga harakat qilishi.
3. Qarz muomalasi paytidagi shartlarga to'liq amal qilish.
4. Qarz olayotgan shaxs yaxshi niyat bilan, qarzni vaqtida to'lashni qasd qilishi.
5. Qarzdor imkon bo'lishi bilan qarzni uzishga o'tishi zarur.

Moddiy imkoni bor odam o'z zimmasidagi moliyaviy burchni ado etmay yurishi zolimlikdir. U bu bilan haqdorlarga ham, o'ziga ham zulm qiladi. Haqdorlar undan o'z vaqtida haqlarini ololmay, zulmga uchraydilar. O'zi esa bu ishi bilan gunohga botib, o'ziga zulm qilgan bo'ladi.

Qarz munosabatlarida qarzning qarz bo'lish shartlari mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

1. Qarz bo'lishi uchun, avvalo, qarzga olingan mablag' sarf etilishi, tasarruf qila olish qobiliyatida bo'lishi kerak.
2. Qarz oldi-berdisida, ijob va qabul bo'lishi lozim. Taraflar o'zaro bir-birlariga o'tgan zamon lafzida "men qarz berdim, men qarz oldim", deyishlari kerak.
3. Qarzga beriladigan pul yoki mol-mulk miqdori og'zaki tarzda, ya'ni bir-birlariga eshittirilib aytilishi lozim .

Qarz munosabatlarida, qarzga beriladigan mulkning holati ham ahamiyatli hisoblanadi. Qarzga beriladigan mablag' muomalada joriy bo'lgan pul birligi yoki erkin ayirboshlanadigan valyuta bo'lishi kerak. Muomaladan chiqarilgan yoki qalbaki pul birliklari, shuningdek, begona yurtning mavhum pul birliklari qarz sifatida berilmaydi.

Qarz munosabatlarining sahih bo'lishida, qarz shartnomasini tuzuvchi taraflar, ya'ni qarz beruvchi ham, qarz oluvchi ham ushbu shartnomani tuzishga layoqatli shaxs bo'lishi, ya'ni aqli raso, foyda va zararni farqlay oladigan oqil kishilar bo'lishlari lozim. Aqli zaif, majnun yoki hotirasi pasaygan qariyalar bilan qarz muomalasiga kirishish nojoiz hisoblanadi. Shuningdek, hali o'z haq-huquqini tushunib yetmagan, yaxshi-yomonni farqlay olmaydigan yosh bolalar bilan ham qarz oldi-berdisi qilinmaydi va ular qarz munosabatlarini, o'zlariga masul bo'lgan vakillari orqali amalga oshiradilar.

Qarzni rasmiylashtirish, ya'ni uni hujjat shakliga keltirish ham o'ziga yarasha talablar asosida amalga oshiriladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Qarzni qog'ozga batafsil yozib, qayd qilib qo'yish;
2. Ishonchli ikki erkaknin, yoki bir erkak va ikki ayolning guvoh bo'lishi;
3. Qarz shartnomasini yozib borayotgan kotibning adolatli bo'lishi;
4. Kafolat bo'lishi;
5. Berilgan qarz miqdorida garov bo'lishi .

Qarz munosabatlarida mazkur shartlarning bo'lishi har ikkala taraf manfaatlarini ko'zlagan holda ko'rsatilgan bo'lib, ular insonlar o'rtasida turli kelishmovchiliklar va tushunmovchiliklar kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu shartlar ichidan ayrimlari, xususan, kafolat va garov qat'iy emas. Biroq ularning bo'lishi qarzdor mas'uliyatini oshiradi, mol egasiga esa hotirjamlik baxsh etadi. Shu sabab, qarzdorga kimdir kafil bo'lgani va imkon qadar mol egasiga qarz miqdorini qoplaydigan garov taqdim etilgani maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shartnomada belgilangan muddatda qarz beruvchi tomon berilgan miqdordagi mablag', ya'ni qarzni talab qilish huquqiga ega. Chunki, qarz bu, shartnoma asosida qayd etilgan kelishuv bo'lib, berilgan mol-mulk mislicha o'z egasiga qaytarilishi lozim. Belgilangan muddatning ortga yoki oldinga surilishi bilan qarz miqdori o'zgarib qolmaydi. Ammo, Hanafiy mazhabi ulamolari fikricha, quyidagi holatlarda qarz muddatini oldinga yoki orqaga surish mumkin bo'ladi:

1. Inkor holati yuzaga kelgan holda, ya'ni qarz olganlik inkor etilganda qarz bergan tomon muddatdan oldin qarzni talab qilishga haqli hisoblanadi.

2. Qozi hukmiga ko'ra, ya'ni muayyan vaziyatni inobatga olib, qozi qarzni to'lashni hukm qilganda, muddatdan oldin yoki keyin qarz qaytarilishi lozim.

3. Mablag'ning ko'chishi sababli, ya'ni mol egasi mablag'ni zarurat tufayli boshqa kishiga o'tkazmoqchi bo'lganda muddat o'zgarishi mumkin. Albatta, bunday holat shartnomada nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Islom dinida qarz, dayn kabi "oriya" nomini olgan mulk ayrboshlash turi ham mavjud. "Oriya" bir kishining o'z hayvoni, kiyimi yoki idishi va shunga o'xshash narsalarini boshqa kishiga vaqtinchalik foydalanish uchun berib turishidir. Oriyaga

olingan narsaning o'zi yana egasiga qaytarib berilishi shart.

Bizda buni ham qarz deb atash odat bo'lgan. Lekin bu ikki narsa orasida farq bor. Qarzga olingan narsaning o'zi ishlatib yuborilib, o'rniga uning badali qaytarib beriladi. Oriyatga olingan narsadan vaqtincha foydalanib bo'lgach, uning o'zi egasiga qaytarib beriladi.

Oriyaning ikki turi mavjud bo'lib ular:

1. Zominligi (kafili) bor oriya. Bunda oriya olingan narsaga oriya oluvchining aybi bilan biror narsa bo'lsa, u to'lab berishga zomin (kafil) bo'ladi.

2. Ado qilinadigan oriya. Bunda, oriya olingan narsaga oriya oluvchining aybisiz biror narsa bo'lsa, uni to'lab bermaydi.

Ba'zan inson hayotida turli xil sinovlarga yo'liqadi. Shunda inson bu holatdan chiqish yo'lini topa olmay, biror-bir yaqin do'sti, qarindoshi yoki qo'shnisidan ma'lum muddatga qarz so'rashga majbur bo'ladi. Qarz beruvchi shuni yaxshi bilishi kerakki, avvalo Alloh taolo unga qarz beradigan darajada dunyo beribdi va agar qarz bersa, qarz berib turish ila bir insonning og'irini yengil qilishga sababchi bo'lsa, Alloh taolo qiyomatda uning og'irini yengil qilishi, qarz berib turuvchiga qarzdor qarzini bergunicha har kuni uchun sadaqa qiluvchining savobi berilishi, qarz berish ila yerdagilarga rahm qilgani uchun unga osmondagilar rahm qilishi, agar qarzni qarzdordan kechib yuborsa, Alloh uning gunohlarini kechib yuborishi kabi bir qancha qarz beruvchiga beriladigan fazllar bor.

Xulosa qilib aytganda, Islom dini qarz masalasiga faqat moliyaviy muammoni hal qilish nuqtayi nazaridan emas, balki ijtimoiy adolat, halollik va insonlar orasidagi ishonchni mustahkamlovchi vosita sifatida qaraydi. Qarzni vaqtda qaytarish, uni yozma ravishda hujjatlashtirish, guvohlar ishtirokida tasdiqlash kabi chora-tadbirlar musulmon jamiyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qarz beruvchining sabr-toqati va qarzdorning vijdoniy mas'uliyati, har ikki tomonning diniy va axloqiy qadriyatlarga sodiqligi orqali bu muhim masala o'zining ijobiy yechimini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R. Abdullayev. Islomda savdo va tadbirkorlik me'yorlari. – T.: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi”, 2023.
2. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Bozor va unga bog‘liq masalalar. – T.: “Hilol-Nashr”, 2022.
3. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qarz va unga bog‘liq masalalar. – T.: “Hilol-Nashr”, 2022.
4. Muhammad Sodik Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Savdo, ziroat va vaqf. Toshkent, 2016.